



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**

151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,  
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022-yil 21-yanvar.

Yaypan shahri.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING**  
**QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA**  
**HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma.
2. Loyihaning mazmuni: Yuridik shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha.
3. Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: Madaniyat bo'limi.
4. Loyiha 06.01.2022-yil kuni ishlab chiqilgan va 21.01.2022-yil kuni markazga taqdim etilgan.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston tuman Madaniyat bo'limiga "O'zbektelekom" AK Farg'ona filiali tomonidan 2022-yil 1-choragi davomida oylik abonent to'lovi 240 000 (ikki yuz qirq ming) so'mni, umumiy qiymati 720 000 (etti yuz yigirma ming) so'mni tashkil etuvchi aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari ko'rsatish yuzasidan ishlab chiqilgan.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandida aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari ko'rsatish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqorida bayon etilganlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2021-yil kungi PQ-5168 sonli qaroriga qo'llanib,-

**X U L O S A**

O'zbekiston tuman Madaniyat bo'limi tomonidan taqdim etilgan NET-85-sonli abonent shartnomasi loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan.

**O'zbekiston tuman YXKM**  
**bosh yuriskonsul'ti**



**M.Utanov**